

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

TDIU prorektori

G.K. Abduraxmanova

2026 yil

“MEHNAT IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

**08.00.10-“Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni**

DASTURI

TOSHKENT - 2026

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2026-yil "26" 08 dagi Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mehnat iqtisodiyoti kafedrasining 2026-yil "___" sentyabrdagi "___" - son yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri  DSe S.B.G'oyipnazarov

Tuzuvchilar:

1. S.B.G'oyipnazarov – "Mehnat iqtisodiyoti" kafedrasini mudiri, DSc, professor.
2. I.A.Bakiyeva – "Mehnat iqtisodiyoti" kafedrasini professor v.b., iqtisod fanlari nomzodi.
3. G.F.Abdumalikova – "Mehnat iqtisodiyoti" kafedrasini katta o'qituvchisi, PhD.

Taqrizchilar:

1. N.Q.Zokirova – G.V. Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali "Mehnat iqtisodiyoti va boshqaruv" kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.
2. N.X.Raximova – O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi direktori, iqtisod fanlari doktori, professor.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish va istiqbolda uning muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga jadal tatbiq qilishni rivojlantirish dolzarb masala bo'lib, respublikada iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilib kelinayotgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar asosida qayta jihozlash, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, qulay investitsion muhitni shakllantirish, kichik biznes, xususiy tabirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis sohasini barqaror rivojlantirishda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o'rnini katta bo'lib, ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o'sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini bozor munosabatlariga o'tish davri nuqtayi nazaridan o'rganish katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtayi nazaridan yondashib, bu muammolarni hal etishga mehnat iqtisodiyoti orqali erishish mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarning samarasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-sentyabridagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son va 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmonlarida tadqiqot yo'nalishi bo'yicha belgilangan muhim vazifalar shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "Ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3855-sonli qarori ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan foydalangan holda yaratilgan tovarlarni (bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish masalalariga alohida urg'u berilgan.

Ayniqsa, respublika tarixida birinchi marta 2019-yil 29-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun bu sohani rivojlantirishda tub burilish yasab, uning xuquqiy asosini yaratdi. Ushbu Qonunini qabul qilinishidan asosiy maqsad ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

"Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti" ixtisosligi demografik jarayonlarni, aholining son va sifat xususiyatlarini, aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini, demografik o'tish, demografik keksayish, oilaning iqtisodiy faoliyatini, aholi joylashish jarayonini, aholi migratsiyasini, demografik prognoz va demografik siyosatni, mehnat jarayonlarini tashkil etishni o'rganishni, mehnat salohiyati va mehnat resurslarining shakllanish jarayonini, mehnat unumdorligi va uni oshirish omillari hamda zahiralarni aniqlashni, bozor mexanizmi tizimida mehnat bozorini

tahlil qilishni, aholini ish bilan bandligi va ishsizlik muammolarini, xodimlar mehnatini baholash va ish haqini tashkil etish tizimini aholini ijtimoiy muhofaza qilishni takomillashtirish yo'llarini, chuqur o'rganib ilmiy izlanishlar olib borishni taqazo etadi.

"Demografiya" fanining predmeti va mazmuni

"Demografiya" fanining predmeti va vazifalari. Aholi – demografiya fanining obykti sifatida. Demografik tarkiblar va jarayonlar. Demografiyaning alohida fan sifatida paydo bo'lish va rivojlanish tarixi. O'zbekistonda demografik bilimlarning rivojlanishi. Demografiyaning tadqiqot usullari. Demografiyaning tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Demografiya fanlari tizimi: demografiya nazariyasi, demografik statistika, amaliy demografiya, geodemografiya, gerontodemografiya, iqtisodiy demografiya, matematik demografiya, paleodemografiya, sotsiologik demografiya, tarixiy demografiya, tibbiy demografiya, etnik demografiya, harbiy demografiya va boshqalar.

Demografik jarayonlar va ularning inson resurslarini takror ishlab chiqarishga ta'siri

Aholi – inson resurslari shakllanishining asosiy manbai. Aholi to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimi. Demografik jarayonlar va ularning asosiy ko'rsatkichlari. Xozirgi davrda demografik o'zgarishlarning sabablari. O'zbekistonda demografik izlanishlarni olib borishning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Tug'ilish, o'lish, tabiiy o'sish va migratsiya. Aholining yoshi va jinsiy tarkibi, iqtisodiy demografik holat. Demografik jarayonlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va sharoitlar. Demografik omilning o'zgarib borish muammosi. O'zbekistondagi demografik tendensiyalar. Qishloq aholisining sonini oshib borishi. Demografik tahlilning metodologik tamoyillari.

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari

Aholi ro'yxati va uni o'tkazish shartlari. Aholini ro'yxatga olish uslubiyoti. Aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalari va tamoyillari. Aholini ro'yxatga olish tartibi va usullari. Demografik jarayonlar: tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishni joriy statistik qayd etish tartibi. Tanlama tadqiqotlar va aholi registrlari. Aholi soni va tarkibi. Aholi sonining o'zgarish omillari. Aholining mutloq soni. Doimiy aholi va uning shakllanishi. O'rtacha yillik aholi soni. Demografik balans va uning ahamiyati. Tabiiy va mexanik o'sishi. Aholi soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlari. Depopulyatsiya jarayoni va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Aholining ortiqchaligi va demografik portlash muammolari.

Aholi tarkibi va uning tavsifiy belgilari. Aholining jinsiy tarkibi va uning shakllanishi. Demografiyada jinslar mutanosibligi ko'rsatkichlari. Aholining yosh tarkibi va uning shakllanish qonuniyatlari. Yosh tasnifi va yosh akkumulyatsiyasi. Qarish shkalasi va unga bo'lgan yondoshuvlar. Aholining keksayishi muammosi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Aholining oilaviy tarkibi. Oilaning asosiy vazifalari: demografik; ijtimoiy; iqtisodiy. Aholining iqtisodiy, ta'lim va ijtimoiy tarkibi. Aholining joylashuvi bo'yicha tarkibi: qishloq aholisi; shahar aholisi.

“Urbanizatsiya”, “aglomeratsiya”, “suburbanizatsiya”, “megopolis” tushunchalarining mazmun-mohiyati. Aholining oʻrtacha zichligi. Demografik salohiyat: shakllanishi, omillari va undan foydalanish.

Nikoh va ajralishning demografik mohiyati

Nikoh – demografik kategoriya sifatida. Nikoh doirasi va nikoh holati. Aholining nikoh tarkibi va uning shakllanish omillari. Nikohning mutloq soni va uni hisoblash usullari. Nikohning umumiy, maxsus va yigʻindi koeffitsiyentlari hamda ularni hisoblash tartibi. Nikohga kirish yoshi. Nikoh salohiyati va uning ahamiyati. Qayd qilinmagan nikoh va uning kelib chiqish sabablari. Oʻzbekistonda nikoh munosabatlari va ularning rivojlanishi. Ajralishning demografik mohiyati. Ajralish jarayonini tavsiflovchi koʻrsatkichlar tizimi. Ajralish koeffitsiyentlari va ularni hisoblash uslubiyoti. Ajralishga taʼsir qiluvchi omillar.

Aholining tugʻilishi va reproduktiv mayl

Tugʻilishning demografik mazmuni. Tugʻilish toʻgʻrisidagi axborot manbalari. Tugʻilish jarayonini tavsiflovchi koʻrsatkichlar tizimi. Tugʻilishning umumiy, maxsus, yosh guruhlari, yigʻindi koeffitsiyentlari va ularni hisoblash usullari. Tugʻilish koeffitsiyentlarini baholash mezonlari. Tugʻilishga oid maʼlumotlarni tahlil qilishda qoʻllaniladigan usullar: real avlodlar usuli, shartli avlodlar usuli. Oʻzbekistonda tugʻilish dinamikasi va unga taʼsir etuvchi omillar. “Reproduktiv mayl” tushunchasining ahamiyati. Reprodukativ mayl tarkibi. Protegenetik va intergenetik interval. Aholining reproduktiv mayliga taʼsir etuvchi omillar. Reprodukativ mayl turlari: koʻp, oʻrtacha va kam farzandga ehtiyoj. Tugʻilish iqtisodiyoti konsepsiyasi.

Aholi oʻlimi va hayot davomiyligi

Oʻlim jarayoni va uning demografik mohiyati. Oʻlim sabablari bilan bogʻliq omillar: endogen, ekzogen va kvaziendogen omillar. Epidemiologik oʻtish konsepsiyasi. Oʻlimning tarixiy tiplari: qadimgi, anʼanaviy va zamonaviy. Oʻlim sabablarining xalqaro tasnifi. Aholi oʻlimini tavsiflovchi koʻrsatkichlar tizimi va ularni hisoblash usullari. Oʻlim koeffitsiyentlarini standartlashtirish. Standartlangan oʻlim koeffitsiyentlarini bevosita va bilvosita usullarda hisoblash. Bolalar va chaqaloqlar oʻlimi. Chaqaloqlar oʻlimi davrlari: perinatal, neonatal va postneonatal. Chaqaloqlar oʻlimi koʻrsatkichlarini hisoblash usullari. Chaqaloqlar oʻlimi koeffitsiyentlarini baholash mezonlari. Oʻlim jadvali va uni tuzish tartibi. Oʻlim jadvali turlari: toʻliq va qisqa oʻlim jadvali. Oʻlim jadvalidagi asosiy koʻrsatkichlarni hisoblash usullari.

Aholi salomatligi

“Salomatlik” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatlik. Salomatlik – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida. Aholi salomatligiga taʼsir etuvchi omillar.

Aholi salomatligini baholashga doir axborot manbalari. Aholi orasida tarqalgan kasalliklarni oʻrganishning ahamiyati. Kasallanish turlari: birlamchi kasallanish;

umumiy kasallanish; yuqumli kasalliklar bilan kasallanish, muqim noepidemik kasalliklar bilan kasallanish; mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotishga olib keladigan kasalliklar; nogironlik. Salomatlik indeksi va uni hisoblash uslubiyoti. Aholi salomatligini muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.

Aholining takror barpo bo'lish xususiyatlari

Aholi takror barpo bo'lish xususiyatlari. Aholining takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. Aholining takror barpo bo'lish turlari: toraygan; oddiy va kengaygan. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy ko'rsatkichlari: yashovchanlik koeffitsiyenti; tabiiy o'sish sur'ati koeffitsiyenti; aholining aylanma koeffitsiyenti; aholi takror barpo bo'lishining foydalilik koeffitsiyenti; tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti; aholi takror barpo bo'lishining brutto va netto koeffitsiyentlari. Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyentini baholash mezonlari. Avlod uzunligi. Demografik o'tish va uning bosqichlari.

Aholi migratsiyasi

"Migratsiya" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik mohiyati. Migratsiya turlari: tashqi va ichki migratsiya. Aholi migratsiyasi ko'rinishlari: doimiy, vaqtincha, majburiy, ichki ko'chirilgan shaxslar, mehnat migratsiyasi. Migratsiya shakllari: ijtimoiy-tashkillashtirilgan; ijtimoiy-tashkillashtirilmagan. Migratsiya sabablari: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy, demografik, ekologik. Migratsiyani hisobga olish usullari va ko'rsatkichlari. Migratsiyaning jadallik koeffitsiyenti. Aholining migratsion harakatchanligini son va sifat jihatdan baholash.

Mehnat migratsiyasi va uning sabablari. Mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlari. Mehnat migratsiyasini tartibga solish sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiyasi agentligi faoliyati. O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari.

Demografik qonuniyatlar va konsepsiyalar

Demografik jarayonlardagi o'zaro bog'liqlik. Aholi yosh tarkibining tug'ilish va o'limning umumiy ko'rsatkichlariga ta'siri. Tug'ilish va o'limning o'zaro bog'liqligi. Migratsiya va aholining takror barpo bo'lishi. Iqtisodiy omillarning aholi harakatiga ta'siri. Demografik jarayonlarga huquqiy me'yorlar, ta'lim, diniy an'analarning ta'siri. Demografik konsepsiyalar. Aholi rivojlanishining son va sifat jihatlari.

Demografik prognozashtirish

Demografik prognoz haqida tushuncha. Demografik prognozning ahamiyati. Demografik prognozlarning tasnifi. Demografik prognoz shakllari. Prognozlarning ishonchliligi va aniqligi. Analitik, normativ va funksional prognozlarning xususiyatlari. Demografik prognoz turlari: qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlarning xususiyatlari. Demografik prognozlarning

amalgama oshirish usullari: ekstrapolyatsiya, analitik, yoshni siljitish usullari. Aholi soni va tarkibini prognozlashtirish. Demografik jarayonlar: tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishni prognozlashtirish. Aholining oilaviy tarkibini prognozlashtirish. Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston Respublikasi aholisi soni prognozlari.

Demografik siyosat

Siyosat - ijtimoiy jarayonlarni boshqarish tizimida asosiy unsur sifatida. Demografik siyosatning tarkibi: siyosiy-demografik munosabatlar; siyosiy-demografik faoliyat; siyosiy-demografik institutlar; siyosiy-demografik manfaatlar; siyosiy-demografik va huquqiy me'yorlar.

Demografik siyosatni o'tkazish shart-sharoitlari. Demografik siyosat o'tkazish uslublari: iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik.

Tug'ilish va oila sohasidagi demografik siyosat. O'limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash borasidagi demografik siyosat. O'zbekistonda davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning asosiy xususiyatlari.

Demografik dividend

Demografik dividend – bu aholi yosh tarkibining o'zgarishi, birinchi navbatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi mehnatga layoqatsiz yoshdagi aholining ulushidan yuqori bo'lgan vaziyat bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy o'sish salohiyatidir. Maqbul iqtisodiy siyosat amalga oshirilib, katta hajmdagi va strategik ahamiyatli investitsiyalar inson kapitaliga, birinchi navbatda yoshlarga yo'naltirilgan taqdirda ushbu salohiyat juda katta bo'lishi mumkin. Demografik dividend – bu aholining yosh tarkibidagi ijobiy o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy o'sish potentsialidir, asosan mehnatga layoqatli aholining ulushi ish bilan band bo'lmagan aholining ulushidan oshib ketganda. Boshqacha qilib aytganda, aynan iqtisodiy mehnat unumdorligining oshishi, ishchi kuchidagi odamlar soni qaramog'idagi kishilar soniga nisbatan ko'payganda sodir bo'ladi. Demografik dividend aholining umumiy sonida ish bilan band bo'lganlarning ulushi yuqori bo'lgan taqdirda yuzaga keladi, chunki bu ko'proq odamlar ishlab chiqarish va iqtisodiyotning o'sishiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Demografik dividend deganda mamlakat aholisining yosh tarkibi o'zgarishi natijasida iqtisodiy o'sish tushuniladi. Yosh tarkibidagi o'zgarish, odatda, tug'ilish va o'limning pasayishi tufayli yuzaga keladi. Iqtisodiy o'sishning demografik imkoniyatlari keng ko'lamli potentsial oqibatlar – aholining keyingi qarishi bilan bevosita bog'liqdir. Keksa odamlar soni qanchalik tez o'ssa, "demografik dividend" ning muqarrar qisqarishi shuncha tezlashadi. Bloom, David E va boshqa olimlarning qarashlariga ko'ra "Yoshlar va kattalar o'rtasidagi farq tufayli «demografik sovg'a» (demographic gift) deb nomlangan iqtisodiy farovonlik uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlaydilar.

Demografik portlash

Demografik portlash (ingl. Population/Demographic explosion) – demografik o'tishni bildiruvchi aholini takror barpo bo'lishining oraliq turini o'rnatilishi natijasida aholi sonining o'sishini keskin tezlashishi. Odatda, bu davrda o'lim

darajasining pasayishi tug'ilishning pasayishidan ancha ustundir, natijada aholining jadal o'sishi kuzatiladi, va bu holat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining obyektiv talablari bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin.

Demografik portlash vaqtinchalik hodisa. Demografik o'tish davrida tug'ilish va o'lim turlari va tartibining buzilgan muvofiqligi qayta tiklanadi, aholining takror barpo bo'lishining oraliq turi asosiyga o'zgaradi va demografik portlash to'xtaydi.

Depopulyatsiya

Depopulyatsiya (ingl. Depopulation) – mamlakatlar va hududlar aholisi mutloq sonining kamayishi yoki uning qisqargan aholi takror barpo bo'lishi, bunda kelayotgan avlod vakillari o'zidan oldingi avlod vakillaridan kam bo'ladi. Aslida agar o'limning umumiy koeffitsiyenti tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti kattaligidan ortib ketsa, depopulyatsiya boshlanadi, ya'ni aholining kamayishi kuzatiladi. "Depopulyatsiya" atamasi odatda aholi takror barpo bo'lishi tartibini bildirib, aholi takror barpo bo'lishi netto koeffitsiyenti qiymati birdan kam bo'lganligini ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlarda depopulyatsiya demografik inqirozning bir ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Depopulyatsiya shuningdek, urushlar, epidemiyalar, halokatli talofatlar tufayli ham sodir bo'lishi mumkin.

Demografik piramida

Demografik piramida (yosh – jins piramidasi) (ingl. Population pyramid, "age-sex pyramid") – aholining yosh va jins tarkibini ko'rsatadi. Piramidaning gorizontaal kesimi har bir yosh guruhidagi erkak va ayol nisbati yoki sonini o'zida ifoda etadi. Barcha yosh-jins guruhlari yig'indisi 100 foiz aholini beradi. Har yili tug'ilganlarning yangi kogortasi paydo bo'ladi, so'ngra piramidaning eng quyi qismiga kelib qo'shiladi, uning ustida joylashgan kogortalar esa o'z-o'zidan yuqoriga siljiydi. Kogortalar qarigan sari ular muqarrar ravishda o'lim natijasida kogorta a'zolarini yo'qotadilar va migratsiya natijasida kogorta a'zolarini qo'shib olishlari yoki yo'qotishlari mumkin. Yuqori yosh guruhlarida qarish jarayoni tezlashadi, bu barcha yoshdagi piramidalarning cho'qqilari torayishiga olib keladi. Bunday piramidalar bir qarashdayoq aholi demografik tarkibi haqida ko'p narsani aytib berishi mumkin. Masalan, ayollar katta yosh guruhlarida (aksariyat davlatlarda ayollar erkaklardan ko'proq yashaydi) sezilarli ko'pchilikni tashkil etadi.

Urbanizatsiya

Urbanizatsiya (ingl. Urbanization) (frans. urbanisation, angl. urbanization, lotincha. urbanus – shaharlik, urbs – shahar) – jamiyat rivojlanishida shaharlar roli ortishining tarixiy jarayoni bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi o'zgarishlarni, eng avvalo aholi manzilgohlari joylanishi, uning ijtimoiy kasbiy, demografik tarkibi, turmush tarzi, madaniyati va boshqalarni qamrab oladi. Urbanizatsiya-ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining tarixan qo'shilgan shakllari asosida ro'y beradigan ko'p tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geografik jarayondir. O'ta tor demografik-statistik ta'rifga ko'ra, urbanizatsiya-bu shaharlarning, ayniqsa, katta shaharlarning o'sishi, mamlakatda, mintaqada,

dunyoda shahar aholisi salmog'ining ortishidir (aholining urbanizatsiyasi). (Демографический понятийный словарь /Под ред. проф. Л.Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2003, – стр. 311). Urbanizatsiya – bu odamlarning shaharlarga ko'chib o'tish jarayoni tufayli, shahar aholi manzilgohlarida yashovchi aholi salmog'i ko'payishi.

“Mehnat iqtisodiyoti” fanining mohiyati, predmeti va mazmuni

Mehnat to'g'risida nazariy tasavvurlar tizimi. Tarixiy manbalarda inson mehnati va faoliyatiga bo'lgan qarashlarning rivojlanishi. Mehnat tushunchasining mazmuni va mohiyati. Mehnat va faoliyat tushunchalari. Inson va jamiyatning rivojlanishida mehnatning ahamiyati. Mehnat jarayonining oddiy tarkibiy elementlari: mehnat predmeti, mehnat vositalari, faoliyat texnologiyalari yoki mehnat predmetiga ta'sir etish usuli. “Mehnat iqtisodiyoti” fanini o'rganish bosqichlari va modellari. “Mehnat” va “faoliyat” tushunchalarining o'zaro nisbati. Mehnat predmetlarini va ijtimoiy munosabatni o'zgartirish jarayoni. Mehnat iqtisodiyotining tarkibiy yo'nalishlari. Mehnat iqtisodiyotining darajaviy bo'limlari va muammolari. Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar. “Mehnat iqtisodiyoti” fanining innovatsion rivojlanish sharoitlaridagi vazifalari.

Mehnat bozori: mohiyati, shakllanishi va rivojlanishi

Mehnat bozorining qisqacha tavsifi. Mehnat bozorining shakllanish shart-sharoitlari. Mehnat bozorining turlari. Mehnat bozorini tartibga solish usullari. Mehnat bozorining modellari. Mehnat bozorida kasaba uyushmalarining roli. Xorijiy mamlakatlar mehnat bozorlari va ularning amal etish xususiyatlari. Iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiyalash sharoitida mehnat bozorining ishlash mehanizmi. Talab va taklifning o'zaro aloqadorligi. Mehnat bozorining turlari, ularning segmentlarga bo'linishi va moslashuvchanligi. Mehnat bozorining modellari. Mehnat bozorining tarkibiy qismlari. Yollanma xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar. Mehnat bozori subyektlari bilan ularning vakillari o'rtasidagi munosabatlar. Iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiyalash sharoitida mehnat bozori subyektlari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar. Mehnat bozorining shakllanishi shart-sharoitlari. Mehnat bozorini shakllanish tamoyillari. Mehnat bozorini shakllanish omillari: iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va demografik. Mehnat bozorini tartibga solishni mohiyati. Mehnat bozorida yuzaga keldigan ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar va ularni tartibga solish usullari. Mehnat bozorida kasaba uyushmalarining roli. Mehnat bozorini tartibga solishning hududiy usullari. Sun'iy intellekt ta'sirida mehnat bozorining raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sish dinamikasi. O'zbekistonda “yashil iqtisodiyot” doirasida yangi ish o'rinlarini yaratish va mehnat bozori transformatsiyasi.

Mehnat bozorida mehnat resurslariga bo'lgan talab va taklif

Mehnat resurslari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida. Mehnat resurslarining shakllanishi. Mehnat resurslari tarkibi: hozirgi paytda faol va faol bo'lmagan aholi turlarining tasnifi. Yollanib ishlaydiganlar va yollanmasdan ishlaydiganlar. Mehnat

resurslaridan foydalanish, jamiyatning mehnat potentsiali. Mehnat resurslarini yosh jihatdan tuzilishi. Mehnat resurslarining sonini aniqlash. Mehnat resurslarining taklifi: oddiy va kengaytirilgan modellar. Mehnat resurslariga bo'lgan talabning shakllanishi. Mehnat resurslarining taklifi: oddiy va kengaytirilgan modellar. Mehnat resurslari taklifini miqdor jihatdan hisoblash tajribasi. Ish beruvchilarni ishchi kuchiga mustaqil talabi. Yollanuvchilarni ish beruvchilardan huquqiy va ijtimoiy himoyalanganligi. Ish haqini uning minimal miqdoridan kam bo'lmashligi. Ishchi kuchiga talabni oshirish. Ishchi kuchi taklifini kamaytirish. Ishchi kuchi talabini qisqartirish. Ishchi kuchi taklifi va befarqlik. Zamonaviy mehnat bozorida ish xaftasining qisqartirilishi. Mehnat bozorini tartibga solishni takomillashtirish. Ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishish. Ish joylari sonini ko'paytirish. Iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish. Sun'iy intellekt asosida kadrlar tanlash va boshqarishning yangi modellari

Mehnat potentsiali

“Mehnat potentsiali” tushunchasi va uning nazariyasi. Mehnat potentsialini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mehnat potentsialining tasniflanishi. Jamiyatning mehnat potentsiali tarkibi. Har bir shaxsning mehnat potentsiali tarkibi. Mehnat potentsialini shakllanishida inson omilining roli. Mehnat potentsialining miqdor va sifat ko'rsatkichlarining shakllanishi. Mehnat potentsialining hozirgi davr konsepsiyasi. Mehnat potentsialining shakllanish jarayonlari. O'zbekistonda mehnat potentsialiga demografik omillarning ta'siri.

Inson kapitali va inson taraqqiyoti

Inson kapitali haqida umumiy tushunchalar. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi. “Inson kapitali” va “inson taraqqiyoti”ga nazariy qarashlar. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida inson kapitalining mohiyati, ahamiyati va rivojlanishi. Insonning ishlab chiqarish layoqatini tahlil etish va mehnatini baholashga oid dastlabki qoidalar. Inson kapitalining aktivlari. Umumiy va maxsus ta'limning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli. “Inson kapitali” tushunchasini ifodalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan xususiyatlar. Inson kapitaliga investitsiyalar. Inson kapitali va inson taraqqiyotiga nazariy qarashlar. Inson taraqqiyoti indeksi va uni hisoblash uslubi. Inson taraqqiyoti rivojlanish darajasi bo'yicha mamlakatlar reytingini aniqlash. Sun'iy intellektning rivojlanishi sharoitida inson kapitali va mehnat qobiliyatini rivojlantirish strategiyalari.

Ish bilan bandlik: nazariya va amaliyot

Aholini ish bilan bandligi bo'yicha klassik va neoklassik nazariyalar. Neoklassik nazariyalarida aholining ish bilan bandligi masalalari. Aholini ish bilan bandligi bo'yicha hozirgi zamon nazariyalari. Aholini ish bilan ta'minlashning tasnifi. Ish bilan bandlik – ijtimoiy-iqtisodiy siyosat elementi. O'zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to'g'risida”gi qonunda belgilangan ish bilan bandlikning asosiy tamoyillari. Aholining ish bilan bandligi, uning asosiy turlari va shakllari. Samarali ish bilan bandlik. Ish bilan bandlik sohasida ijtimoiy-demografik

guruhlar. Aholining ish bilan bandligini oshirish yo'nalishlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida aholini ish bilan bandligini ahamiyati va unga mehnat bozorini ta'siri. Yangi ish o'rinlarini yaratish va norasmiy bandlikni qisqartirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari.

Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholining ish bilan bandligi

Raqobatbardosh bo'lmagan aholi toifalari. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan nogironligi bo'lgan fuqarolar ish bilan bandligining kafolatlari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishga qiynalayotgan shaxslar uchun ish o'rinlarining eng kam miqdorini belgilash. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish vazifalari. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan yoshlarni ishbilan ta'minlash. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarning ish bilan bandlik masalalari. O'zbekistonda yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlar samaradorligi.

Mehnat bozorida mehnat resurslarining mobilligi va migratsiyasi

Mehnat resurslarining mobilligi va uning turlari. Mehnat resurslari mobilligiga ta'sir etuvchi omillar. Mehnat resurslarining hududlararo mobilligi. O'zbekiston aholisi tarkibida shahar va qishloq aholisi ulushininig o'zgarishi. Mehnat resurslarining tarmoqlararo mobilligi. Korxonalarda mehnat resurslari mobilligini tartiga solish. "Migratsiya" tushunchasining mazmuni. Migratsiyaning yo'nalishiga ko'ra turlari. Mehnat migratsiyasi: kelib chiqishi va oqibatlari. Xalqaro mehnat migratsiyasi. Mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishi.

Ish bilan beqaror bandlik: shakllari, imkoniyatlari va muammolari

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi va mehnat munosabatlarining yangi shakllari. Ish bilan beqaror bandlik va uning turlari. Ijaraga olingan (zayomniy) mehnat (loan labor). Masofada turib ishlash (teleish – "Telework", "TelecommuTING"). Autstaffing ("out staff" – "shtat tashqarisida"). Outsorsing ("outsourcing" – "tashqi manba va/yoki resursdan foydalanish"). Outsorsing ("outsourcing" – "tashqi manba va/yoki resursdan foydalanish"). Frilans ("freelance" – "erkin yollash"). Kovorking ("co-working" – "hamkorlikdagi mehnat"). Kraudsorsing ("crowdsourcing, crowd" – "keng doira" va "sourcing" – "resurslardan foydalanish"). Kasanachilik mehnati va uning yo'nalishlari. Ish bilan beqaror bandlikning mehnat bozoriga ta'siri.

Mehnat bozorida davlatning ish bilan bandlik siyosati

Davlatning mehnat bozoridagi roli. Davlat tomonidan mehnat bozorini tartibga solishning ma'muriy, iqtisodiy va tashkiliy usullari. Davlatning ish bilan bandlik siyosati: faol va nafaol siyosat. Mehnat bozorining infratuzilmalari. Mehnat bozori kon'yukturasini o'rganish. Mehnat bozorida xususiy vositachi tashkilotlar. Davlat va nodavlat mehnat migratsiyasi xizmatlari. Mehnat bozorining kasbiy va qo'shimcha ta'lim infratuzilmasi. Aholini ishga joylashtirish tizimida davlat va xususiy tuzilmalar sherikligining roli. Raqamli iqtisodiyot asosida ish bilan bandlikka ko'maklashish.

Ishsizlik: sabablari, xususiyatlari va kamaytirish yo'llari

Ishsizlik haqida umumiy tushunchalar. Ishsizlik shartlari. A.Ouken qonuni. Ishsizlikning tarqalishi va ishsizlar xarakati. Ishsizlikning davomiyligi. Ishsizlik bo'yicha nafaqalar, uni tayinlash va to'lash tartibi. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari va namoyon bo'lish xususiyatlari. O'zbekistonda ishsizlikning o'sish sabablari. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Ishsizlik turlari: tabiiy, majburiy, tarkibiy, friksion, davriy, yashirin ishsizlik. Ishsizlikning turli mezonlari bo'yicha tasnifi. Sun'iy intellekt davrida ishsizlik xavflari va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish. Yashil investitsiyalar va ularning ish o'rinlari barqarorligiga ta'siri. Ishsizlikning jamiyat hayotiga ta'siri. Aholini ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat siyosati va uning asosiy yo'nalishlari. Ishsizlarning ijtimoiy himoya qilishda Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasining o'rni. Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari faoliyati. Ishsizlarni kasbga qayta o'qitish va ta'lim berish tizimini kengaytirish. Bo'sh ish joylari haqida axborotlarni tarqatish.

Mehnatga bo'lgan rag'bat, motivatsiya va haq to'lashni tashkil etish

O'zbekistonda aholi turmush darajasi va uning barqaror rivojlanishi. Aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Aholining pul daromadlari va ularning shakllanishi. Uy xo'jaligi daromadlari va harajatlari, ularning maqbullashtirish yo'llari. Nominal va real daromadlar. Ish haqining iqtisodiy mohiyati. Mehnatga haq to'lash darajasini o'rnatishning bozor mexanizmi. Ish haqining vazifalari va elementlari. Ish haqini tashkil etish tamoyillari. Tarif tizimining mohiyati va elementlari. Mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Korxona va tashkilotlarda ish haqi jamg'armasini rejalashtirishning mohiyati, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari. Asosiy va qo'shimcha ish haqi. Ish haqining ishbay hamda vaqtbay tizimlarini qo'llash. Mehnatga haq to'lashni tartibga solish. Mehnatga haq to'lash tizimlari. Eng kam ish haqi. Mehnatni rag'batlantirish. Ish haqini isloh qilish yo'nalishlari. O'zbekistonda ish haqi siyosati va uning aholining turmush darajasiga ta'siri.

Mehnat samaradorligi va uning omillari

Mehnat unumdorligi – samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari. Mehnat unumdorligini o'lchash usullari. Mehnat unumdorligini hisoblashdagi mahsulot hajmi va mehnat sarflari ko'rsatkichlari. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va vositalari. Moddiy-texnik omillar. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Tashkiliy-institutsional omillar. Mehnat unumdorligi oshishi zahiralari: umumdavlat, mintaqaviy, tarmoqlararo, ishlab chiqarish, foydalanish, joriy va istiqboldagi zahiralalar. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari. Mahsulotdagi mehnat sig'imi turlari. Mehnat unumdorligi va ish haqining nisbati. Eng yuksak mehnat unumdorligi konsepsiyalari. Sun'iy intellekt asosida mehnat samaradorligini oshirish va ish jarayonlarini raqamlashtirish. Yashil texnologiyalar joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligi va bandlik darajasining o'zgarishi.

XMTning Munosib mehnat konsepsiyasi

Munosib mehnat kategoriyasi shakllanish bosqichlari. XMT konvensiyalari va tavsiyalari. Munosib mehnat iqtisodiy kategoriya sifatida. Munosib mehnat konsepsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi. Munosib mehnat mezonlari asosida aholini ish bilan ta'minlash. Jahonda ish bilan bandlik o'rtacha darajasi. Jahonda ishsizlik darajasi ortishining dinamikasi. Munosib ish xaqi va mehnat xavsizligi va ijtimoiy muloqot-munosib mehnat vasitasi sifatida. Munosib mehnatni o'lchash va baholashning olti. Munosib mehnat eng muhim tarkibiy qismlari. Munosib mehnat tamoyillarining ijtimoiy-mehnat munosabatlarini uyg'unlashtirishda jaxon tajribasi. AQSH va Yevropa Ittifoqida Xalqaro mehnat tashkilotining Munosib mehnat konsepsiyasi tamoyillariga rioya etilishi. Munosib mehnat holatini hisoblash indikatorlari. Birlashgan Millatlar Tashkiloti miqyosida munosib mehnat ko'rsatkichlarini monitoring qilish. O'zbekistonda munosib mehnat talablarini joriy qilish.

Mehnat munosabatlari

Mehnat munosabatlarning mohiyati va ularning turlari. Mehnat shartnomasida xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuv. Mehnat munosabatlarida mehnat shartlari. Tadbirkorlik faoliyatida mehnat munosabatlari. Innovatsion tadbirkorlik – mehnat munosabatlarining zamonaviy shakli. Har bir oila – tadbirkor. Oilaviy tadbirkorlikning afzalliklari. Pensiya ta'minoti: uning modellari va xususiyatlari. Majburiy mehnatga barham berish. Sun'iy intellektni joriy etish sharoitida mehnat munosabatlarini tartibga solish.

Mehnat migratsiyasi

Mehnat migratsiyasi (ingl. Labour migration) – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog'liq hudud bo'ylab odamlarning almashinishini o'zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi. Bu mamlakat ichida va shu bilan birga mamlakatlar o'rtasida amalga oshishi mumkin. Mehnat migratsiyasi mamlakat ichidadoimiy, ya'ni yashash joyini o'zgartirishi bilan; yoki vaqtincha, ya'ni yashash joyini o'zgartirmasdan (bunday holda mehnat migratsiyasining epizodik, mavsumiy, mayatniksimon shakllarini ajratish lozim) amalga oshishini taqozo etadi. Xalqaro mehnat migratsiyasi ham doimiy bo'lishi mumkin, ya'ni doimiy yashash uchun bir davlatdan boshqa davlatga ko'chishi bilan bog'liq. Muddatiga ko'ra cheklangan (bunday holda, nemischadan "mehmon ishchilar", «gastarbeiter» termini ishlatiladi), kontrakt bo'yicha; mavsumiy migratsiya, chegara oldi ishchilari migratsiyasi («frontalerlar»)da mehnat migratsiyasi vaqtincha xarakter kasb etadi.

Migratsiya siyosati

Migratsiya siyosati (ingl. Migration policy) – bu turli xil ijtimoiy jarayonlarga, jumladan ular tarkibiga kiradigan aholi migratsiyasiga ta'sir o'tkazadigan vositadir. Bu hokimiyat tuzilmalari darajasida umum qabul qilingan g'oyalar va konseptual jihatdan birlashgan vositalar tizimi bo'lib, uning yordamida eng avvalo davlat, shuningdek, boshqa jamoat institutlari muayyan prinsiplarga rioya qilgan holda qo'yilgan maqsadga erishishni o'z zimmasiga oladilar. Siyosat

davlatning asosiy poydevorini (konstitutsiya, xalqaro huquqiy hujjatlar, va boshqalar) tashkil etadigan prinsiplarga muvofiq olib borilishi lozim. Siyosat faqat chora-tadbirlar tizimi bilan chegaralanmaydi, holbuki kechagina unga mazkur jarayonni boshqaruvchi tadbirlar to'plami sifatida munosabatda bo'linar edi.

Migratsiya siyosati har qanday boshqa siyosatlar singari uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi, birinchisi – bu konsepsiya. U aholi migratsiyasi bo'yicha dasturiy hujjatlarni va demografik jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha shakllantirish mumkin bo'lgan huquqiy, axloqiy va mafkuraviy makon chegaralarini belgilaydigan qarashlarning tizimi, migratsion siyosatning poydevori hisoblanadi. Демографический понятийный словарь /Под ред. проф. Л.Л. Рыбаковского. – М.: ЦСП, 2003, – стр.170).

Matematik demografiya

Matematik demografiya o'z rivojining ma'lum bir pog'onasiga ko'tarilgan bo'lib, uning predmetini demografik jarayonlar va hodisalarning o'zaro aloqadorligini o'rganish uchun matematik usullarni ishlab chiqish va qo'llash, ularni modellashtirish va prognozlashtirish tashkil qiladi. Demografik modellar qatoriga – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jadvallari, statsionar va muqim aholi modellari, demografik jarayonlarning imitatsion modellari va h.k.larni kiritish mumkin. Matematik demografiya (rasmiy va sof demografik fan) demografiyaning bir bo'limi bo'lib, unda aholig takror barpo bo'lishi qonunchiligining soni va sifati matematik usullar orqali demografik modellar asosida o'rganiladi. Demografiya fani gumanitar fanlar ichida yeng matematikalashtirilgan fan hisoblanadi. Ko'p olimlar demografiyaning tug'ilishini 1662 yildagi J.Graunt tomonidan chop etilgan London aholising o'limiga doir ishi bilan bog'laydilar. Aynan ushbu ish aholi takror barpo bo'lish jarayonining matematik ta'riflash bilan shug'ullangan matematik demografiya sohasidagi yeng birinchi ish bo'lib hisoblanadi. Matematik demografiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish davrida nafaqat aholi takror barpo bo'lishining matematik modellari, balki miqdoriy me'yorlar – aholi harakatini ta'riflovchi ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Matematik demografiya fani asosida ikki asosiy belgilarni – jins va yoshni o'zida mujassam etuvchi insonlar haqida tushunchalar yotadi. Demografik ko'rsatkichlar alohida individuum uchun emas, balki ko'plab insonlar yig'indisi uchun ishlab chiqiladi.

Uch o'zgaruvchilar:

y – kuzatuv vaqti;

a – yoshi;

t – tug'ilish vaqti.

$t+a=y$.

Oydinlik va oddiyligiga qaramay bu tenglikni matematik demografiyaning asosiy nisbati desa bo'ladi. Shu bilan bir qatorda matematik demografiyada Leksis diagrammasi ham muhim o'rin tutadi. Matematik-demografik modellar ushbu diagramma ichidagi turli hil nisbatlarni tavsiflab bnradi. Matematik demografiya – demografik bilimlar tizimida rivojlanib kelayotgan soha bo'lib, zamonaviy kompyuterlarni qo'llash, standart usullar va dasturlardan foydalanish, uning

natijalarini demografiyaning turli hil soha mutaxasislari uchun qulayliklar yaratadi va demografiya fani tizimini har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Migratsiya jadalligi

Migratsiya jadalligi (ingl. Migration intensity) – migratsion jarayonlarning jadalligi koeffitsiyentlari eng ko'p qo'llaniladigan nisbiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ular turli tumanlarda aholining migratsion harakatchanligini solishtirishga imkon beradi. Jadallik ma'lum muhitdagi qandaydir hodisaning qaytalanishini tavsiflaydi va to'g'ri kasrda, ya'ni bunda alohida turdagi hodisalar soni suratida, asosiy to'plam maxrajida ifodalanadi. Bu ko'rsatkichlar kelganlar (chiqib ketganlar, migratsion aylanama, saldo migratsiya) sonini aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali aniqlaniladi. Ular foizlarda yoki promilleda, aniqrog'i hisoblashda har 100 yoki har 1000 aholiga nisbatan ifodalanadi.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari va ularning tartibga solinishi

Ijtimoiy mehnat munosabatlari, ularning turlari va tartibga solinish vositalari. Davlat, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida ijtimoiy sheriklik. Ijtimoiy mehnat munosabatlarida davlat-xususiy sherikligining roli. Ijtimoiy mehnat nizolari va ularni hal qilish usullari. Mehnat faoliyati sohasida xalqaro standartlar. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida mehnat munosabatlarining tartibga solinishi. Sun'iy intellektni joriy etish sharoitlarida mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning ijtimoiy siyosati. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnatni boshqarish tizimini takomillashtirish. Mehnatni boshqarish tizimi. Mehnatni boshqarish turlari va metodlari.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mehnat munosabatlari

Taraqqiyot strategiyasining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi va mehnat iqtisodiyotidagi mohiyati. Mehnat iqtisodiyotida strategiya tushunchasi. "Raqamli iqtisodiyot" asosida ish bilan bandlikka ko'maklashish. Mehnat bozorini takomillashtirish strategiyasi. Yangi ish joylarini yaratish bo'yicha davlat dasturlari.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023 йил.
2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т.: Адолат, 2022 йил.
3. Ўзбекистон Республикасининг "Аҳоли бандлиги тўғрисида"ги қонуни. Янги таҳрири– Т.: 2020 йил.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида"ги Қонун. <http://xs.uz/uzkr/post/ilm-fan-va-ilmij-faoliyat-togrisida> 29.10.2019.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йилнинг 11 сентябридаги "“Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида” ПФ-158-сон Фармони. 2023 йил.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 июлдаги "Илмий ва илмий техникавий фаолият натижаларини тижоратлаштириш

самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3855-сонли қарори.

7. 2022-2026 йилларга ўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сонли қарори.

8. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Дарслик. – Т.: “FAN”, 2019 йил. - 670 б.

9. Qalandar Abdurakhmanov. Labor economics: Theory and practice. Textbook. Scientific Publishing House IVG. London 2020. 615 p.

10. G.K.Abduraxmanova. Mehnat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2020.-138 b.

11. Г.К.Абдурахманова. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. “FAN” нашриёти. Т.: 2021. – 691 б.

12. Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue, David A. Macpherson. Contemporary Labor Economics. McGraw-Hill Education. Copyright © 2017. 640 p.

13. Абдурахмонов Қ.Х., Н.Т.Шоюсупова, И.А.Бакиева, Г.К.Абдурахманова. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат таъминлаши асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Монография.Т.: Иқтисодиёт, 2016.-214 б.

14. Абдурахмонов Қ.Х.ва бошқалар. “Инсон тараққиёти”. Дарслик. Т.: “Fan va texnologiya”, 2013.- 476 б.

15. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qo'llanma. – Т.: Noshir, 2011. – 296 б.

16. Абдурахмонов Қ.Х., Зокирова Н. Қ., Современная экономика труда : учебник. – М.: Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2025. – 740 с. – ISBN 978-5-85006-668-0

17. Абдурахмонов Қ.Х., Зокирова Н. Қ., Сунъий интеллект даврида меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. Т.: “ILM-MA'RIFAT” нашриёти, 2025. –356 бет.

18. Abdurakhmonov K.Kh., Labor Economics in the Era of Artificial Intelligence. – New York, NY 10018, United States “Callaghan Publication”, 2025. – 584 p.

19. Медков В.М. Демография: Учебник. 2-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2018.

20. <https://demografiya.uz/>